

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**KOMPYUTER INJINIRING FAKULTETI**

**TEXNOLOGIYALARNI BOSHQARISH  
fani**

## MARUZA №1.

### **Mavzu: Kirish. Texnologiyalarni boshqarish.**

Istalgan sohaning rivojida texnologiyalarni boshqarish muhim sanaladi. Bunda u yoki bu texnologiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi va bozorda keng segmentni olishiga imkon beradi. Bu fanning yakunida talabalar texnologiyalar, innovatsiya, litsenziya va texnologiyalarning realizatsiyasi va strategiyasi haqida boshlang'ich tushunchalarga ega bo'ladi.

#### **Kursni o'qish jarayonida talaba quyidagi bilimlarga egabo'ladi:**

- Innovatsion faoliyatni strategik yo'nalishini aniqlash;
- Innovatsiyani qo'llash strategiyasini ishlab chiqish;
- Innovatsiya faoliyatni baxolash instrumentlari;
- Tizimli yondashuv asosida strategik fikrlash bilim va ko'nikmalar;
- YAKka va korporativ mijozlar bilan o'zaroaloqa munosabatlarini amalga oshirish;
- Biznesni rivojlantirish strategiyalarni baxolash;
- Insonlar bilan muloqotni olib borishni;
- Tashkilot subektlari orasida vujudga keladigan ziddiyatli vazifalarni echishni;
- Marketingni texnik boshqarishni;
- Natijaviy kommunikativ rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- Sotuv bo'limining biznes jarayonlarning yangi tendentsiyalari bilan tanishish;

#### **Kursni o'qish jarayonida talaba quyidagi bilimlarga ega bo'ladi:**

- Innovatsion faoliyatni strategik yo'nalishini aniqlash;
- Innovatsiyani qo'llash strategiyasini ishlab chiqish;
- Innovatsiya faoliyatni baxolash instrumentlari;
- Tizimli yondashuv asosida strategik fikrlash bilim va ko'nikmalar;
- Yakka va korporativ mijozlar bilan o'zaroaloqa munosabatlarini amalga oshirish;
- Biznesni rivojlantirish strategiyalarni baxolash;
- Insonlar bilan muloqotni olib borishni;
- Tashkilot subektlari orasida vujudga keladigan ziddiyatli vazifalarni echishni;
- Marketingni texnik boshqarishni;
- Natijaviy kommunikativ rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- Sotuv bo'limining biznes jarayonlarning yangi tendentsiyalari bilan tanishish.

#### **Kursni o'qish jarayonida talaba quyidagi bilimlarga ega bo'ladi:**

- Innovatsion faoliyatni strategik yo'nalishini aniqlash;
- Innovatsiyani qo'llash strategiyasini ishlab chiqish;
- Innovatsiya faoliyatni baxolash instrumentlari;
- Tizimli yondashuv asosida strategik fikrlash bilim va ko'nikmalar;

- Yakka va korporativ mijozlar bilan o'zaroaloqa munosabatlarini amalga oshirish;
- Biznesni rivojlantirish strategiyalarni baxolash;
- Insonlar bilan muloqotni olib borishni;
- Tashkilot subektlari orasida vujudga keladigan ziddiyatli vazifalarni echishni;
- Marketingni texnik boshqarishni;
- Natijaviy kommunikativ rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- Sotuv bo'limining biznes jarayonlarning yangi tendentsiyalari bilan tanishish.

### **Nima uchun AT ni boshqarish kerak?**

70 yillar oxirida shaxsiy kompaniyalar kamdan kam ish uchun qo'llaniladi, ammo 80 yillar o'rtalariga kelib buni biznes faoliyatga qo'llash boshlandi. Borgan sari kompyuter dasturlari ko'payishi bilan AT korxonalarining faoliyati krizisga uchradi.

Bunday bo'lishiga sabab korxonalar boshqaruvchilarining mavjud texnologiyalardan unumli foydalanmaganligi hamda personalni motivatsiya qilish uchun yetarlicha ko'nikmalarning yo'qligi bo'ldi.



IT tashkilotlar texnologiyalarni oqilona qo'llagan xolda biznes jarayonlarini tezlashtirishga, samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi kerak. (birnecha texnologiyalarni moslay olishni, vaqtni tejashga)


Korxonalar yurituvchilar o'z biznesini inqirozdan saqlash va daromadni oshirish maqsadida boshqaruvga o'zgacha yondashish kerakligini tushunib yetishdi. Shundan so'ng turli sohalarda loyihalarni boshqaruvchilar, ya'ni menejerlar kasbi vujudga keldi. Menejerlar turli sohalarda turli yo'nalishlarni qamrab olishi mumkin. Texnologiyalarni boshqarishda asosiy vazifalarni loyiha menejerari yoki PBI menejerlari bo'ladi.

### **Boshqarish texnologiyalari klassifikatsiyasi**

Boshqarish texnologiyasi klassifikatsiyasi quyidagi parametrlar bo'yicha ajratiladi. Bu parametrlar ham o'z ichiga kichik yo'nalishlarni birlashtirib ketadi. Bunday klassifikatsiya qilish boshqaruv jarayonini osonlashtirish va muammoli vaziyatlarda muammoni tez hal qilishga beradi.



Boshqarish texnologiyasi klassifikatsiyasi – bu axborotlar, iqtisodiy-matematik usullar va modellar, texnik, dasturiy, texnologik vositalar va mutaxassislar, shuningdek boshqa qayta ishlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mo'ljallangan axborotlar yig'indisi



1.1-rasm. Boshqarish texnologiyalari klassifikatsiyasi

Boshqarish texnologiyalari klassifikatsiyasi quyidagi parametrlardan tashkil topgan:

- **Tizim analiz teznologiyalari.** Loyihani boshqarishda modellashtirish, dekompozitsiya qilish, agregatsiyalsh va alternative yechimlarini topishda qoʻllaniladi.
- **Standart texnologiyalar.** Guruh, tashkilot, loyihaning maqsadini shakllantirish, rejalashtirish, analiz qilish, muammolarni aniqlash va nazorat qilishda qoʻllaniladi.
- **Boshqaruv texnologiyalari.** Guruh va jamoani boshqarishga asoslangan. Asosiy maʼlumotlari psixologiya, sotsiologiya va ergonomika fanlaridan oladi.
- **Kommunikatsiya texnologiyalari.** Boshqaruvning gorizonta va vertikal turlarini qamrab oladi. Bunda insonning verbal va noverbal muloqot turlari boshqariladi.
- **Psixo – texno insonlarni boshqarish.**

Bunda asosiy eʼtibor biznesni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan. Rivojlanish oʻz oʻrnida ketishi va maqsadlar oʻz oʻrnida bajarilishi uchun biznesning tezlik parametrlari kerak boʻladi. Biznes tezlik parametrlari:

- Xizmat va buyurtmalarni qanchalik tezlik bilan taqdim etish;

- Tashkilot tomonidan taqdim etiladigan uzluksiz xizmatlar;
- Markaziy tashkilotning ishlash vaqti;
- Hafta kunlari;
- Tashkilotning strategik maqsadlar;
- Tashkilotning asosiy vazifalari.

### **PBI-menejer**

PBI-menejer — bu tashkilotning ishonchli subekti bo'lib, uning funksiyasi AT etkazib beruvchilar(tashqi yoki ichki) o'z vaqtida kerakli xizmatlarni etkazib berayotganligini nazorat qilishdan iborat. U etkazib beruvchilarni tanlashi, ularga talablarni tushuntirishi va AT xizmatlarni taʼyidim etish jarayonlarini boshqarib turishi kerak.

Shundan kelib chiqib PBI-menedjerlarning ustunliklari:

- **Ochiqlik va mo'tadillik.** O'zlari yuritayotgan loyihani ochiqlik prinsipi asosida boshqarish.



*1.1-sxema. Ochiqlik va mo'tadillikning standart jarayoni.*

- **Operatsiya va samaradorlik.** Har bir bajarilgan qadamning o'z vaqtida samaradorligiga erishish.
- **IT-xizmatlarni boshqarish.** Bunda turli texnologiyalar asosida ishlab chiqarish samaradorligiga erishish.
- **Natijaviylik, baholash va hisobot.** To'plangan ma'lumotlarning hisobotlarining mavjudligi. Bu hisobotlar asosida u yoki bu bo'limning monitoringini amalga oshirish.
  - **Biznes-impulsni mo'tadil ushlab turish.** Talab va taklifning qaysi tomonga og'ayotganini bilish. Biznesni mo'tadil ushlab turish ishlab chiqarish

hajmini, qo'llanilish mumkin bo'lgan texnologiya va qaysi bozor segmentini egallash mumkinligini analiz qiladi.

<b>Biznes-impuls parametrlari</b>	Ishchilar soni
	SHKdan foydalanuvchilar soni
	Filiallar soni
	Asosiy ofis ishchilar soni
	Etkazib beruvchilar soni
	Mijozlar soni
	Xizmat va maxsulotlar soni
	Xalqaroaloqalar soni

Shuningdek menedjer IT xizmatlarning samaradorligi va qo'llay olinayotganini nazorat qilishi kerak. U operativ IT jarayonlarda, ishtirok etadi. Taqdim etilgan AT xizmat ish jarayonida yaxshi samara berayotganini va uni yanada samaraliroq bilishi ustida ishlaydi.

**AT xizmatning infrastrukturasi va ochiqligi:**

- Yangi infrastrukturani taqdim etish;
- Qadamma-qadam rivojlanish parametrlari;
- Ishlab chiqarish kuchini rejalashtirish.

**Infrastruktura va ilovani boshqarish va qo'llab quvvatlash :**

- vazifalar / rejalashtirish bo'yicha xizmatlar;
- vazifalar/ tashkillashtirish bo'yicha xizmatlar/ resurslarni tanlash;
- tezkor vazifalar/ xizmatlar;
- vazifalar / monitoring bo'yicha xizmatlar;
- vazifalar/ xisobotlar bo'yicha xizmatlar;
- vazifalar / byudjetni tashkil etish bo'yicha xizmatlar.

**2-ma'ruza.**

**Axborot texnologiyalarivaaxborot texnologiyalari innovatsiyasitarqalish nazariyasi.**

Innovatsiyani ta'riflash ko'ringanidek oson emas. Ko'pchiligimiz innovatsiya nima ekanligini bilamiz deb o'ylaymiz, lekin har birimizda buni qanday ta'riflashning o'ziga xos asosimiz mavjud. Ba'zilar innovatsiyani kashfiyot plyus ekspluatatsiya sifatida tushunishadi. Boshqacha qilib aytganda bu nafaqat yaratish jarayonigina qolmasdan ixtirochi yoki boshqa kishi bu maxsulotni odamlarga sotish uchun olishadi. Bu matn ushbu tushuncha orqali innovatsiyaning ko'p qamro'vliligi va o'z ichiga kashfiyotlarni rivojlantirish va amalga oshirish jarayonini olishni tasdiqlaydi. Ishonamizki, bu keng tushunchaga innovatsiya

elementlari jarayoni o'gir bo'lgani uchun ehtiyoj seziladi shu sababli biz innovatsiyaning keng tushunchasini afzal ko'ramiz, jumladan Rubenshteyn tomonidan innovatsiya ta'riflanganidek: “ yangi va yaxshilangan maxsulotlar yordamidagi jarayon, jarayonlar materiallar va xizmatlar rivojlangan va ular zavod va marketlarga, ularga mos joylarga o'tkaziladi”. Shuni aytib o'tish muhimki, bu tushunchadan kelib chiqqan holda innovatsiyaning 1, 4-rasmda jamlanganidek har xil turlari mavjud deb aytish mumkin. U yerda mahsulot yoki jarayonlardagi yangilik, qo'llashdagi yangilik yoki ikkalasining birlashmasi bo'lishi mumkin. Innovatsiyaning bu har xil turlarini boshqarishdagi qiyinchilik o'zgarib turadi. Masalan, eng innovatsion yondashuv bu yangi muammo yoki foydalanishni hal qilish uchun yangi mahsulot yoki jarayonni rivojlantirish. Odatda innovatsiyaning bu turlarining o'zgarish jarayonidagi ta'sirlari juda kata. Masalan internet bizning ishimizni qanday o'zgartirgani haqida o'ylang, ya'na bir misol eski jarayonlarni yangicha qo'llab tasvirlaydigan DVD. DVD lar ham CD lardek aynan bir hil texnologiyalar bilan shug'ullansada, biroq ularda siqish va o'qish uskunalarini ancha rivojlangan.

**Innovation Categories**

		PRODUCT/PROCESS	
		New	Old
USAGE/PROBLEM	Old	<p style="text-align: center;"><b>Category 1</b></p> <p>New solution to an old problem Product: new medications Process: just-in-time</p>	<p style="text-align: center;"><b>Category 2</b></p> <p>No innovation</p>
	New	<p style="text-align: center;"><b>Category 3</b></p> <p>Most innovative: new product that leads to new opportunities Product: PC in 1980 Process: bar codes for inventory control</p>	<p style="text-align: center;"><b>Category 4</b></p> <p>Old product/process used in a new way Product: other uses for a paper clip; DVDs Process: testing soils with satellite imagery</p>

Bu misollarning hammasi maxsulotga moslashgan, lekin u yerda innovatsiya jarayonlari ham bor. Innovatsiyaning bu kabi jarayoni firmalarga ombor va mablag' qiymatlarini saqlashga imkon beradi. Ko'pincha maxsulot va innovatsiya jarayonlari bir biriga bog'liq bo'ladi. Masalan, virusdan himoya dasturini o'z ichiga oluvchi e-mail xavfsizligi innovatsiya maxsuloti hisoblanadi. Shuni e'tiborga olish qiziqki, firmalar ma'lumotlarini himoyalash uchun yangi dastur va jarayonlar iloji

boricha tez sur'atlarda rivojlansa ham, yangi muammolar paydo bo'lyapti. Bu innovatsiyaning mutassil urushi.

### **Innovatsiya boshqaruvi ta'rifi**

Innovatsiya ta'riflangani bilan, biz uni qanday boshqaramiz? Muvaffaqiyatli innovatsion boshqaruvi tashkilotning yakka shaxslar va guruhlariga "yangilik"ni tanishtirish va muvofiq ravishda javob berishga ruxsat berishga resurslarni ishonitirish uchun tayyor ekanligining yuqori boshqaruviga asoslangan. Bu ishonitirish o'z navbatida bir necha haqiqatlarini bilishni talab qiladi.

Bu haqiqatlar quyidagilar:

1. Texnologiya boshqaruvi o'z ichiga innovatsion boshqaruvni oladi
2. Innovatsion g'oya va ish qo'llab quvvatlanadigan muhitni talab qiladi
3. Qimmatroq va yaxshiroq bo'lgan maxsulotlar va mavjud jarayonlarda yetakchi firmani qamrab oladi
4. Bu tavakkal qilish va ijodkorlikni talab qiladi.

Shu sababli, biz innovatsiya boshqaruvini tashkiliy va integrativ muammoni hal etish strukturasi asoslangan harakat, va innovatsiya oqimlari, tashkiliy guruhlar va tashkilot evolyutsiyasi o'rtasidagi aloqani tushunishga keng qamrovli yondashuv sifatida ta'riflaymiz. Bu siyosatni boshqarish, nazorat qilish va o'zgarishga qarshi individual immunitetlarni amalga oshirish haqidagi ishlar ijrosini ta'minlash. Boshqaruvchi esa bu-arxitektor/injener, siyosatchi/tarmoq quruvchisi va rassom/olim.

Texnologiyaga kelsak, tashkilot ichida innovatsiya muvaffaqiyat keltirsa, sodir bo'lishi shart bo'lgan maxsus uskuna va qarorlar mavjud. Ijodkorlikni boshqarish innovatsiya boshqaruvida juda ahamiyatli. Bu tashkilotda kashfiyot muhitini rivojlanishini o'z ichiga oladi. Delbecq&Mills innovatsiya jarayonini yaxshi boshqaradigan firmalarning xususiyatlarini tasvirlagan.

Bu firmalar quyidagilar orqali xususiyatlanadi:

1. Innovatsiya uchun mablag' ajratadi
2. Tashqi yo'nalish boshqaruv guruhi tomonidan norasmiy takliflarning davriy kuzatuvlari
3. Bajariladigan izlanishlar va kutilgan davomiyliklar bo'yicha aniq yo'nalish
4. Bepoyon chegara-boshqalardan o'rganish va boshqalar nima qilayotganini tushunishni o'stirish uchun mashg'ulotlar
5. Xaqiqiy umidlar majmuasi
6. Turli xillikni tadqiq qilish, shuningdek madad uchun mos resurslar va innovatsiya boshqaruvi uchun qarorlar qabul qilish xizmati uchun madadkor "atmosfera".

Pixar Animation Studio innovatsiya uchun madadkor muhit qurish yo'lini tasvirlaydi. Bu studiya "O'yinchoqlar tarixi", "Kananing hayoti" va "Maxluqlar"




kabi filmlarni yaratgan.U birinchilardan bo'lib Marionette,animatsiyalar uchun dastur, Ringmaster,modellashtirish,jonlantirish va yoritish uchun dasturiy tizimlarni qamrab olgan yangi kompyuterlashgan animatsiya texnologiyalarini rivojlanishini kashf qildi.Studiya firmani boshqaruvchi juda kreativ shaxslar (Stiv Jobs,Apple kompaniyasi asoschisi) va firmada doimiy ishlaydigan boshqa kishilarga ega.Ularga Pixarning ishiga bog'liq turli mavzularda 3 oy o'qishga imkoniyat beradigan Pixar Universiteti firmada zaruriy maxoratlarga ega bo'lishni kafolatlaydi.Kompaniya ijodkorlikni yanada rag'batlantirishga byurokratiyani cheklash orqali harakat qiladi.Shu yo'sinda biznes ijodkorlik uchun umumiy muhit yaratdi.Innovatsiya boshqaruvi firmaning ijodkorlikni rag'batlantirishini va individuallar tomonidan tavakkalchilikni talab qiladi.Firma kamchilik va tadqiqotlarga imkon beradigan jarayonlardan foydalanishi shart.Innovatsiyani ilhomlantiruvchi tashabbusni oshiradigan 4 ta asosiy individual xususiyatlar mavjud.Agar tashkilot ish muhitini shu yo'sinda boshqarsa,innovatsiya yuz berishi mumkin.

Bu xususiyatlar quyidagilar:

- 1.Imkoniyat va muammolarni aniqlash uchun savol berish
- 2.Yangi maxoratlarni o'rganish
- 3.Tavakkal qilish va faol bo'lish
- 4.Shaxsiy fikr va qadriyatlarni tashkilot qadriyatlari va maqsadlari bilan tenglashtirish.

O'ylaganingizdek innovatsiya jarayoni tashkilotda davomli jarayon bo'lishi kerak ekanligi aniqlashadi.Bu bir marta sodir bo'ladigan va firmaga zarur bo'lgan barcha innovatsiyalarni olib keladigan jarayon emas.1.5 rasm innovatsiya jarayonining davriy tabiatini ifodalaydi.Bu jarayonning turli aspektlari kitobda chuqur o'rgatiladi.Bu jarayonni oydinlashtirish uchun Koch sanoatini tasavvur qiling.Firma Qo'shma Shtatlardagi eng katta kompaniyalardan biri.Koch boshqa firmalar kabi kishilarni yangi g'oyalarni rivojlantirish uchun mukofotlaydi.Bunga qo'shimcha holda,firma ishchilar ish bermaydigan yangi nimadir sinab ko'rishsa ularni jazolamaymadaniyatdi.Kochda madaniyat tavakkal qilishga undaydi.Oxir natijada firma yog' va gaz kompaniyalarini hajmini oshiradigan yangi marketlarni xilma xil qilishga qodir bo'ldi.

### Cyclical Innovation Process Model



### Innovatsiya boshqaruvi uskunalari

Texnologiya boshqaruvi innovatsiyaga qaraganda mavjud texnologiyani o'zgartirish va davom ettirishning kengroq ko'lamini o'z ichiga oladi. Innovatsiya bevosita yangi jarayonlar va/yoki jarayonlarning kashfiyoti va rivojlanishini qamrab oladi. Ko'pincha, innovatsiyani o'ylaganda, keskin yangi va inventar maxsulotlar va/yoki jarayonlarni hayolimizga keltiramiz. Masalan, TOYOTA tomonidan kashf qilingan ishlab chiqaruvchi tizimi innovatsiyasi ishlab chiqaruvchilar butunjaxon normasiga aylanayotgan, jumladan JIT texnikalari bilan qanday biznes qilishayotganini qayta shakllantirdi. Biroq, innovatsiya unchalik keskin bo'la olmaydi, bu eski maxsulotni yangi usulda qo'llash kabi sodda bo'lishi mumkin. Bu kitobda biz texnologiya boshqaruvi (MOT) va innovatsiya boshqaruvi (MOI) ni farqlaymiz, lekin esingizda bo'lsinki, ular tashkilot ichida o'zaro bog'langan. BU farqlash bizga firmaning harakatini yaxshiroq tahlili qilishga yordam beradi, lekin haqiqatda, ular bir qator bosqichlarda bir xil narsa.

### Strategiya perspektivasi

Strategic boshqaruv bu firmaning o'z muhitini tahlil qilishga va o'zining kuchli va zaif jihatlari va ergashtiradigan raqobatbardosh yo'lini tanlashga urinishi. Bu yo'lda, firma kuchli tomonini kuchaytirish va zaif tomoniga e'tibor qaratishga intiladi. Strategik ko'rinish texnologiya va innovatsiya boshqaruvida muvafaqqiyat markazi ekanligi ma'lum. Strategik ko'rinish aniq 3ta bosqichga

bo'lingan:rejalashtirish,amalga oshirish,baholash va nazorat.Mualliflar bu strukturalardan matn davomida foydalanishgan.

### **Strategic boshqaruvda qaror qabul qilish**

Oldin ta'kidlanganidek,tashkilot texnologiya va innovatsiyalarni o'rganishni boshlaganda asosiy qarorni qabul qilishga majbur.Tajribalarimizdan ishonamizki,bu qarorlardagi asosiy element bu ichki yoki tashqi tomondan jalb qilingan jarayonlar.Masalan,agar firma texnologiya sotib olishni tanlasa,bu texnologiya integratsiyasi va texnologiyani ishlab chiqargan firma turiga diqqat qaratishi shart.Aksincha,diqqat texnologiya yaratilishiga qaratilsa, firma ichki innovatsiyaga tuzilma bo'ylab qanday undaydi va kompensatsiya muhimroq bo'la boshlaydi. Oldin qayd qilinganidek,strategic model mavzuni tahlil qilish bilan shug'ullanadi.Shuning uchun,rejalashtirish,amalga oshirish,baholash va nazorat ichki innovatsiya va tashqi texnologiyani egallashni o'rganishda qo'llaniladi.

Muhokama savollari.

- 1.Strategik nuqtai nazardan “texnologiya”tushunchasini muhokama qiling.
- 2.Strategik boshqaruv jarayonida innovatsiyaning rolini muhokama qiling.
- 3.Texnologiya boshqaruvini ta'riflang va bilimingizga asoslanib misol keltiring.
- 4.Innovatsiya boshqaruvini ta'riflang va firma innovatsion jarayonlarni qanday boshqara olishiga misol keltiring.
- 5.Nokianing texnologiya boshqaruviga misol keltiring va ular mashg'ulotlardan raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lishni qanday uddalagan?

## **MA'RUZA №3**

### **Mavzu: Xalqaro intellektual mulk tizimi**

**Intellektual mulk bu** - insonning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan adabiy, badiiy, san'at asarlariva sanoat namunasidir. Ijodiy faoliyat, o'z navbatida, inson tafakkuri mahsuli hisoblanadi.Shu bois intellektual faoliyat ishtirokchilari – mualliflar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning eng faol sub'ekt-laridir.

**Intellektual mulk huquqi** - intellektual (aqliy) faoliyat natijasiga tegishli huquq. Mulq egasi ana shu intellektual mulk ob'yektlaridan o'z xohishiga ko'ra, har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqiga egadir. Huquq egasiga mutlaq xuquq asosida tegishli bo'lgan intellektual mulk ob'yektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasining roziligi bilangina yo'l qo'yiladi.



Ba'zi ob'yektlarga nisbatan (ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, tovar (xizmat) belgisi, firma nomi va sh. k.) mutlaq huquq davlatning vakolatli organi tomonidan beriladigan maxsus hujjat — patent, guvohnoma asosida vujudga keladi va huquqiy muhofaza qilinadi.

### «Intellektual mulk» tushunchasi

Dastlab 1967 yil 14 iyuldagi «Butunjahon intellektual mulk tashkiloti(BIMT)ni tashkil etish to'g'risida»gi Stokgolm konvensiyasida ilgari surilgan. Mazkur konvensiya intellektual mulkning huquqiy maqomini belgilash bilan birga, uning tarkibi, ya'ni ob'ektlarini ham aniqladi hamda BIMT faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini ko'rsatib berdi.

Intellektual mulk ob'yektlari fuqarolik huquqining boshqa ob'yektlari — ashyolar, qimmatbaho qog'ozlardan quyidagi xususiyatlari bo'yicha farq qiladi:

a) ko'p hollarda ular moddiy ko'rinishda emas, balki g'oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo'ladi;

b) g'oya, bilim shaklidagi intellektual mulk ob'yektiga odatdagi moddiy ashyoga egalik qilganday egalik qilish mumkin emas;

v) shaxslar bunday ob'yektlardan ayni bir vaqtning o'zida cheksiz doirada foydalana olishi mumkin;

### Intellektual mulk turlari

Intellektual mulk ob'yektlari kandy faoliyat mahsuli ekanligi, huquqiy rejimi va sh.k. xususiyatlariga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:

a) *intellektual faoliyat natijalari*: fan, adabiyot, san'at asarlari; eshittirish tashkilotlarining ijrolari, fonogramma va eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumot bazalari; ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari; seleksiya yutuqlari; oshkor etilmagan axborot, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) dan iborat;

b) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining , tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar (firma nomlari; tovar (xizmat) belgilari; tovar chiqarilgan joy nomi; v) FK da va b. qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining , tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalar. Mazkur faoliyatning yangi mahsullariga, firmalar, tovarlar, ishlar, xizmatlarning yangi nomlari va alomatlariga nisbatan ham FK (4-bo'lim) da va b. qonunlarda intellektual mulkka oid belgilangan qoidalar qo'llanadi

### Patent

**Patent** (lot. *patens* — ochiq, aniq, ravshan) — texnik yechim yoki ixtironing davlat tomonidan e'tirof etilganligini va ixtirochining o'z ixtirosiga olgan mutlaq huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Patent olish jarayoni, patent oluvchining ma'suliyatlari va eksklusiv huquqlari turli mamlakatlarda turlichadir. Shunday bo'lsa ham, har bir patent olish uchun yozilgan arizada ixtironing biror-bir yangilik kiritayotgani haqida ma'lumot

bo'lishi kerak. Ko'p mamlakatlarda berilgan eksklusiv huquqlar boshqalar patentlangan ixtironi ruxsatsiz yasashi, qo'llanishi, sotishi yoki tarqatishi oldini oladi.



[Xalqaro Savdo Tashkilotining](#) mualliflik huquqlari bo'yicha shartnomasiga ko'ra, bu tashkilotga a'zo mamlakatlarda har qanday sohadagi ixtiro uchun patentlar mavjud bo'lishi zarur.

Patentni odatda davlat tomonidan beriladi beradi. Davlat patent idorasi tomonidan ixtiro muallifiga yoki ariza bo'yicha huquqiy vorisiga beriladi. Ko'p mamlakatlardagi qonunlariga ko'ra, patent 15—20 yil muddatga beriladi. Ba'zi mamlakatlarda ixtorolarni himoyalash vaqti odatda kamida 20 yil bo'lishi kerak.

Patent odatda shu patent chiqarilgan mamlakat hududida amal qiladi. Xalqaro amal qiluvchi patentlar ham mavjud. Ba'zi mamlakatlarda ma'lum bir sohalardagi ixtirolar uchun patent berilmaydi.

### **Ixtiro**

**Ixtiro** — xalq xo'jaligining turli sohalarida, ijtimoiymadaniy qurilish va mudofaa sohalarida ijobiy samara beradigan, o'ziga xos texnikaviy yechimga ega bo'lgan yangilik. Tor ma'noda — davlat tomonidan tan olinadigan va tegishli qonun bilan muhofaza qilinadigan yangi texnikaviy yechim.

- ✓ Har qanday yangilik ham Ixtiro bo'lavermaydi. Masalan, quruq ilmiy qoidalar, xususan, kashfiyotlar, amalga oshirib bo'lmaydigan va xato takliflar (masalan, abadiy dvigatel yaratish haqidagi takliflar)
- ✓ Bu shartlardan asosiysi masalaning eng yangi hisoblangan texnik yechimidir. Muayyan taklifni Ixtiro deb hisoblash uchun undan bir necha marta foydalanish imkoni ham bo'lishi kerak.
- ✓ Ixtironing yangiligi, ya'ni birinchi ekanligi (ko'pincha, ixtirochilikka oid tashkilotlarga berilgan hujjat — ariza sanasi) oldin berilgan mualliflik guvohnomalari va patentlar, Ixtirolar e'lon qilinadigan tegishli adabiyotlar, ko'rgazmalarda namoyish qilingan eksponatlar va boshqaga muvofik, aniqlanadi.

### **Litsenziya**

**Litsenziya** (lot. licentia — ruxsatnoma, huquq)


1) vakolatli davlat organlari tashqi savdo harakatlarini olib borish uchun beradigan ruxsatnoma. Eksport va importni, valyuta sarflarini nazorat qilish usullaridan biri. Odatda, 1 yilga beriladi;

2) texnikaviy, iqtisodiy, ilmiy yangiliklar egasining ularni ishlatish uchun shartnoma asosida beradigan ruxsati. Odatda, Litsenziya patent olingan yoki patent olish uchun talabnoma berilgan ixtirolarga nisbatan qo'llaniladi. Ixtirolarga, texnika yangiliklariga, ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish sirlari, tijorat axborotlari uchun patentsiz ham berilishi mumkin. Litsenziya beruvchi litsenziar, Litsenziya oluvchi *litsenziat* deb yuritiladi.

- Yangi texnika va texnologiyaga oid Litsenziyalar 3 xil bo'ladi:
- oddiy Litsenziya — litsenziar ixtirodan shartnomada belgilangan doirada foydalanish huquqiga ega bo'ladi, ayni bir Litsenziyani ma'lum hudud doirasida faqat bir emas, balki bir necha litsenziatga bera oladi;
- maxsus Litsenziya — litsenziat ixtiro, texnika yoki texnologiyani ishlatishga tanho huquqli bo'ladi, litsenziar esa uni shu hududda ko'llay olmaydi va o'z nomidan boshqalarga sota olmaydi;
- to'liq Litsenziya — bunda Litsenziya ob'yektini ishlatish to'la-to'kis litsenziatlar qo'liga beriladi, litsenziar esa undan mustaqil foydalana olmaydi.
- Bunday qoida Litsenziya berilgan muddat ichida amal qiladi. Litsenziya muayyan narxda sotiladi.

### **Jahon intellektual mulk tashkilot**

**Jahon intellektual mulk tashkiloti** — xalqaro hukumatlararo tashkilot, BMTning ixtisoslashgan muassasasi (1974 y.dan). Sanoat mulkini muhofaza qilish Parij uyushmasiga a'zo davlatlar, Adabiyot va san'at asarlarini muhofaza qilish Bern uyushmasi va boshqa ayrim ixtisoslashgan uyushmalarning diplomatik konferensiyasi (Stokgolm, 1967)da qabul qilingan konvensiyaga muvofiq tuzilgan.



2.1-rasm. Xalqaro intellektual mulkning vazifalari

Jahon intellektual mulk tashkilotining maqsadi davlatlar va xalqaro tashkilotlarning hamkorligi orqali intellektual mulkini muxofaza qilishga

ko'maklashish, yuqoridagi uyushmalarning samarali faoliyat olib borishini ta'minlashdan iborat. Jahon intellektual mulk tashkilotiga 147 mamlakat (2000 y), shu jumladan O'zbekiston Respublikasi (1991 y. 25 dek.dan) a'zo. Tashkilotning oliy organi — Bosh assambleya; ma'muriy organi — Xalqaro byuro. Qarorgohi — Jeneva sh.da.

### **Xalqaro intellektual mulkni himoyalash**

Xalqaro intellektual mulkni himoyalashda asos bo'lib quyidagi xalqaro shartnomalar ishlatiladi:

1. Parij konvensiyasi. 1883 – yilda qabul qilingan ishlab chiqarishdagi mulkni himoyalash to'g'risida.
2. Bern konvensiyasi. 1886 – yilda qabul qilingan adabiyot va san'at asarlarini himoyalash to'g'risida.
3. Madrid konvensiyasi. 1891 – yilda qabul qilingan xalqaro markalarni ro'yhatdan o'tkazish to'g'risida.

### **O'zbekiston respublikasining butunjahon intellektual mulk tashkiloti (wipo) bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari**

O'zbekiston Respublikasining Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikning asosiy maqsadlari bu - sanoat mulkini muhofaza qilish sohasida milliy qonunchilik hamda mazkur yo'nalishdagi normativ-huquqiy normalarni mukammallashtirish, shu sohada bir qator shartnoma va kelishuvlarga qo'shilish hamda O'zbekiston Respublikasi IMA'lari va BIMT bilan yuridik va texnik aloqalarni doimiy ravishda olib borishdan iboratdir.

Toshkent shahrida BIMT hamkorligida intellektual huquq va an'anaviy bilim himoyasi masalalari bo'yicha turli xalqaro seminar va konferensiyalar olib borilmoqda.

Intellektual mulk masalalari bo'yicha habardorlikni oshirishdagi hamkorlik ham rivojlanmoqda. Respublikamiz vakillari Butunjahon intellektual mulk tashkiloti doirasida o'tkaziladigan turli tadbirlarda ishtirok etib, o'z kasbiy mahoratlarini oshirib kelmoqdalar.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi vakillari Butunjahon intellektual mulk tashkilotining quyidagi tadbirlarida faol ishtirok etadilar:

- Jahon intellektual mulk tashkilotining Tovar belgilari, sanoat namunalari va geografik ko'rsatkichlar bo'yicha doimiy qo'mitasi yig'ilishlari;
- Tashkilotning intellektual mulk, genetik resurslar, an'anaviy bilimlar va folklor bo'yicha davlatlararo qo'mitasining sessiyalari;
- BIMT assambleyasi yig'ilishlarida

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari

yuqori darajada rivojlanib bormoqda, deb hisoblash mumkin. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi BIMT bilan o'zaro hamkorlik doirasi aniqlovchi kelishuvga ega.

#### **MA'RUZA №4.**

##### **Mavzu: O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk qonunchiligi**

O'zbekiston 1991 yildan buyon Jahon intellektual mulk tashkilotining a'zosi hisoblanadi. Jahon intellektual mulk tashkiloti bugungi kunda 180 dan ortiq davlatni o'zida birlashtirgan xalqaro tashkilotdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 may kungi «O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori bilan intellektual mulk sohasida bir-biridan mustaqil faoliyat yuritib kelgan Davlat patent idorasi hamda O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tashkil etildi. Natijada xalqimizning ilmiy-texnikaviy ijod erkinligidan samarali foydalanishi uchun yanada kengroq sharoitlar yaratildi. Intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, yagona yondashuvni ta'minlash, mamlakatimizning ushbu sohadagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash va hayotga tatbiq etish bo'yicha yaxlit tizim vujudga keldi.

O'zbekistonda ixtirolar, foydali model, sanoat namunasiga nisbatan qo'yiladigan patent olish huquqini vujudga keltiradigan talablar hamda patent idorasining bunday hujjatni berish tartibi mamlakatning „Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida“gi qonuni (1994-yil 6-may) da belgilab berilgan.

Bir qancha mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatining muayyan turlari bilan shug'ullanish uchun berilgan maxsus ruxsatnoma ham „patent“ deb ataladi. Davlatdan bunday patentni sotib olish tadbirkorlarni (odatda, yakka tartibdagi tadbirkorni) bundan keyingi (bir yilga yoki boshqa davrga) soliqlar to'lashdan ozod etadi.

##### **O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi**

###### **Funksiyalari**

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga intellektual mulk obyektlarini huquqiy muxofaza qilish va ularga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi hamda ularni amalga oshirishda bevosita qatnashadi;
- intellektual mulk obyektlarini huquqiy muxofaza qilish va ularga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi hamda ko'rib chiqish uchun ularni



belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

- innovatsiya texnologiyalari va ixtirolar, ilmiy-texnika va sanoat ishlanmalari yaratilishini, seleksiya yutuqlarini, badiiy-konstruktorlik hamda ijodiyot ishlarining boshqa turlarini rag'batlantirish, ularni, shu jumladan ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va modernizatsiya qilish doirasida ishlab chiqarishga keng joriy etishni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
- ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joylari nomiga nisbatan muhofaza hujjatlari berish yuzasidan buyurtmanomalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi;
- ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joylari nomlari, integral mikrosxemalar topologiyalari davlat ekspertizasini amalga oshiradi, arizada ko'rsatilgan obyektlarning ustuvorligini belgilaydi.

#### **Vazifalar**

- intellektual mulk obyektlarini huquqiy muxofaza qilish va ularga bo'lgan huquqlarni himoya qilish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquq egalari huquqlarini himoya qilish;
- ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari va boshqa intellektual mulk obyektlarini ekspertizadan hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- innovatsiya texnologiyalari va ixtirolarni, ilmiy-texnika va sanoat ishlanmalarini, seleksiya yutuqlarini, badiiy-konstruktorlik va ijodiyot ishlarining boshqa turlarini ishlab chiqarishga keng joriy etishga har tomonlama ko'maklashish;
- patent hujjatlarining davlat fondini va intellektual mulkning rasman ro'yxatdan o'tkazilgan obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ularni saqlash va ulardan foydalanish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash;
- intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ularga bo'lgan huquqlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya etilishini qat'iy nazorat qilish, vakolatli davlat organlari bilan birgalikda kontrafakt tovarlarning respublika hududiga noqonuniy olib kirilishi va aylanishining oldini olish chora-tadbirlarini ko'rishda qatnashish.

Ixtiroga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Patent idorasi tomonidan berilgan patent O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro konvensiyalar, u bilan xorijiy davlatlar o'rtasida

tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar asosida belgilangan xududlardagina amal qilanadi.

2016 yil birinchi choragida agentlik tomonidan intellektual mulk ob`ektlariga 2 mingga yaqin talabnoma qabul qilindi. Ular bo`yicha ekspertiza o`tkazilib, davlat reestrlarida 677 intellektual mulk ob`ekti ro`yxatdan o`tkazilgan. Hisobot davrida patent hujjatlari davlat fondiga yuz mingdan ziyod hujjat kelib tushgan.

### **Intellektual mulkni olish yo'llari**

- ✓ Ariza bilan bevosita O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligiga murojaat qilish;
- ✓ Yagona interaktiv hizmatlar portal [my.gov.uz](http://my.gov.uz) ga ariza berish

### **Agentlikning asosiy vazifalari**

Agentlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari hamda intellektual mulkning boshqa ob`ektlarini (IMO) himoya qilish, IMO bo`yicha huquq egalarini himoya qilish, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolar, ilmiy-texnik va sanoat ishlanmalarini, seleksiya yutuqlarini, badiiy-konstruktorlik va boshqa turdagi ijodiy ishlarning keng joriy etilishiga ko`maklashish, shuningdek, intellektual mulk ob`ektlarini ekspertiza qilish va ularni davlat ro`yxatidan o`tkazish.

### **1993 yildan 2010 yilgacha intellektual mulkni himoya qilish sohasida oltita qonun qabul qilingan.**

1. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida";
2. "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida";
3. "Seleksiya yutuqlari to'g'risida";
4. "EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida";
5. "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida";
6. "Mualliflik huquqlari va turdosh huquqlar to'g'risida".

### **Quyidagilar ixtiro sifatida e'tirof etiladi:**

- ✓ qurilmalar;
- ✓ usullar;
- ✓ moddalar;
- ✓ mikroorganizmlarning shtammlari;
- ✓ o'simliklar va hayvonlar hujayralarining turlari;
- ✓ ilgari ma'lum bo'lgan qurilmalar, usullar, moddalarning, mikroorganizmlar shtammlarining yangi maqsadda qo'llanilishi.

### **Quyidagilar ixtiro sifatida e'tirof etilmaydi:**

- ilmiy nazariyalar va matematika usullari;
- tashkil etish va boshqarish usullari;
- shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;
- aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari;
- elektron hisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar;
- binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va chizma tarhlari; estetika talablarini qanoatlantirishga yoʻnaltirilgan, buyumlarning faqat tashqi koʻrinishiga oid yechimlar;
- integral mikrosxemalarning topologiyalari;
- oʻsimlik navlari va hayvon zotlari;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar.

## **MAʼRUZA №5**

### **Mavzu: Rejalashtirish va bashoratlash texnologiyasi**

**Reja**– tashkilotning kelajakdagi ijtimoiy- iqtisodiy holati

**Korxonada faoliyatini rejalashtirish** – istalgan faoliyatni amalga oshirish va shu faoliyat natijasiga erishishga qaratilgan harakatlar ketma – ketligi. Bunda barcha kiruvchi axborotini qayta ishlash zaruriyati mavjud boʻladi.

Korxonada faoliyatini rejalashtirishdagi asosiy koʻrsatkichlar

- kelajaldagi maqsadlar;
- tashkil etish vositasi va usullari;

#### **Rejani tashkil qilish prinsiplari**

- **Toʻliqlilik** — barcha holat va vaziyatlarni hisobga olish
- **Aniqlilik** — Bashoratlashni aniqligini taʼminlaydigan usullar, vositalar, jarayonlar
- **Tushunarlik**— rejani tashkil qilishda soddalik
- **Uzluksizlik**— rejalashtirish – uzluksiz jarayon
- **Tejamkorlik**— rejalashtirishga ketadigan chiqimlarni oʻlchash

#### **Reja quyidagilardan shakllanadi:**

- Marketing taxlil.
- Texno-iqtisodiy taxlil
- Iqtisodiy taxlil

#### **Maqsad**

tashkilotning alohida xususiyatlariga qaratilgan holatlarni oblatga olib buzoq muddatgacha orxonada faoliyatini shakllantirishga yoʻnalish berish. Uning asosiy kriteriyalari:

- Aniqlik. Maqsad aniq boʻlishi kerak. Misol uchun 10 yil ichida bozorni egallaymiz. Savol: qaysi bozor segmentini, qaysi yoʻnalishda egallash?

- O'lchamlilik. Misol uchun 1 yil ichida ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar ishlab chiqarish. Bu resurslarning holatiga bog'liqmi? Moliyaviy ta'minot kim tomonidan bo'ladi.
- O'zaro qo'llab quvvatlash. Har bir bo'lib ish faoliyati davomida o'zaro bir birini qo'llab quvvatlashi zarur.
- Reallik. Real hajmdagi va imkoniyatlardan kelib chiqqan maqsad.
- Vaqtga qaratilgan. Maqsadni vaqtga taqsimlaganda to'g'ri taqsimlanganligi.

#### **Umumiy maqsadlar:**


- Tashkilotning rivojlanish konsepsiyasini ifodalaydi.
- Uzoq muddatga mo'ljallangan
- Tashkilot rivojlanishining asosiy yo'nalishini belgilaydi

#### **Maxsus maqsadlar:**

1. Xar bir bo'limning rentabilligini oshirish
2. Moliya, ishlab chiqarish va marketing sohasida maqsadlarga erishish
3. Korxonada filiallari va unga qarashli tashkilotlar maqsadlariga erishish

#### **Korxonada faoliyatiga qarab maqsadni tanlash**

1. Foydalar;
2. Mijozlar bilan ishlash;
3. Hodimlarning ehtiyoji va holati;
4. Ijtimoiy javobgarlik;



*5.1-rasm. Rejalashtirish bosqichlari*

#### **Rejada quyidagilar aniq aks ettiriladi:**

1. Tashkilotni kelajakda rivojlantirish bashorati
2. Korxonada va uning bo'limlari oldida turgan joriy va yakuniy maqsad va vazifalari
3. Resurslarni taqsimlash va mavjud faoliyatni yo'naltirish mexanizmlari
4. Favqulotda holatlardagi strategiyalar



5.1-sxema. Biznes reja

**Quyi rejalashtirish: “Hozirgi” rejalashtirish.** Operativ rejalashtirish kunlik muammo va vazifalarni yechishga qaratilgan. Bunda kunlik ish faoliyati chegarasida turli hil konferensiya, seminar va yig’ilishlar ham bo’lishi mumkin. Uzoq’I bilan operativ rejalashtirish 1 yil muddatga yaratiladi.

- 1 yil muddatga;
- Strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan vositalar ;
- Qisqa muddatli va operaiv rejaga kiritilgan;

**O’rta darjada rejalashtirish: Taktik savollar.** Bu rejalashtirish bosqichida kompaniya yoki tashkilot yaqin kunlardagi hamkorlarini va resurslarini boshqarishni rejalashirishi mumkin. Undan tashqari bu bisqichda personalni ish faoliyatini rejalashtirish ham olib boriladi. Tashkilot taktik maqsadlarni aniqlaydi, ishchilarni rag’batlantiradi va strategik maqsadga erishish yo’lida resurslarni taqsimlaydi.

1. Tashkiloy tuzulmani tashkil etish;
2. Ishchilarni olishni rejalash;
3. Hujjatlarni yurgizish texnologiyasi;
4. Mijozlar bilan o’zaro aloqa;

**Yuqori darajada rejalashtirish: Strategik rejalashtirish.** Korxonona yoki tashkilotning ish faoliyatining yuqori bosqichini ko’rsatuvchi reja. Bunday reja 10 yil oralig’iga yaratiladi va korxonaning shu vaqt oralig’ida real erishishi mumkin bo’lgan yutuq va maqsadlarni ko’rsatadi.

- Korxonona faoliyatining maqsadini va erishiladigan natijalarni aniqlaydi;
- 10-15 yil muddatni o’z ichiga oladi;
- Boshqaruvchi qarorlar asosi hisoblanadi;

**Strategik rejalashtirish funksiyalari**

1. Resurslarni taqsimlash;

2. Tashqi muhitga moslashish;
3. Ichki koordinasiya;
4. Tashkiliy strategiya;



### **Strategik planning 3 asosi**

1. Korxonada faoliyatini boshqaraolishlik
2. Har bir biznes bo'limning foydasini belgilay olish
3. Uzoq muddatli korxonada faoliyatini belgilovchi reja ishlab chiqish

### **Strategik rejalashtirish jarayoni**

Strategik rejalashtirish bir necha jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu jarayonlar har bittasini bajarish va aniqlash kompaniyaning kelajakdagi rivojini ta'minlab beradi. Shu sababdan har bir jarayon o'ta aniqlik bilan ta'riflanishi kerak bo'ladi.

### **MA'RUZA №6**

#### **Mavzu: Bozor va texnologiyalar strategiyasi**

Har qanday menejer mehnatining *yakuniy mahsuli* - bu *qaror va harakatlar*. U tomonidan qabul qilingan qaror korxonani rivojlantiradi yoki muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

**Qaror qabul qilish** – bu har doim faoliyat yo'nalishini bir nechtasidan malum birini tanlash.

#### **Avtomatlashgan axborot texnologiyasining asosiy maqsadi**

dastlabki ma'lumotlarni qayta ishlash orqali optimal boshqaruv qarorlari ishlab chiqilishiga asos bo'luvchi yangicha sifatdagi axborotni olish

**Tashkilotni avtomatlashgan axborot texnologiyasi strategiyasini tanlash quyidagi omillar bilan belgilanadi:**

- ▶ korxonada yoki tashkilotni faoliyat yuritish sohasi;
- ▶ korxonada yoki tashkilot turi;
- ▶ ishlab chiqarish-xo'jalik yoki boshqa faoliyati;
- ▶ korxonada yoki tashkilotni boshqarish modeli;
- ▶ boshqaruvning yangi vazifalari;
- ▶ mavjud axborot infratuzilmasi.

#### **Kichik korxonalarda strategiyasini tanlash quyidagi omillari**

axborot texnologiyalari, odatda, buxgalteriya hisobi masalalarini hal etish, biznes-jarayonlarning alohida turlari bo'yicha axborotlarni jamlash, korxonada faoliyati yo'nalishlari bo'yicha axborotlar bazasini tashkil qilish, foydalanuvchilarning o'zaro va boshqa korxonada hamda tashkilotlar bilan aloqa qilishlari uchun telekommunikatsiya muhitini tashkil etish bilan bog'liq bo'ladi

### **O'rtacha korxonalarda strategiyasini tanlash quyidagi omillari**

boshqaruv bo'g'ini uchun elektron hujjat aylanishining amal qilishi va uni konkret biznes-jarayonlar bilan bog'langanligi katta ahamiyat kasb etadi. Bunday tashkilotlar (korxonalar, firmalar) uchun firma faoliyati bilan bog'liq bo'lgan funktsional vazifalar ko'lamini kengaytirish, turli formatlardagi hujjatlarni jamlash, qidirib topish, axborotlardan beruxsat foydalanishdan himoyalash va sh. k. imkoniyatini beruvchi axborotlarning avtomatlashgan ombori va arxivini tashkil qilish xarakterlidir.


**Yirik tashkilotlarda (korxonalarda) strategiyasini tanlash quyidagi omillari** axborot texnologiyasi telekommunikatsion aloqa vositalari, ko'p mashinali komplekslar, rivojlangan "mijoz-server" arxitekturasi, yuqori tezlikdagi korporativ hisoblash tarmoqlarini qo'llashni o'z ichiga oluvchi zamonaviy-apparat kompleksi negizida quriladi

### **Axborot-kompyuter texnologiyalari strategiyalarining guruhlanishi**

<b>Axborot texnologiyalari guruhi</b>	<b>Texnologiyani vazifasi</b>	<b>Texnologiyani qo'llash sohasi</b>
<b>Malumotlar bazasi</b>	Malumotlarni yig'ish, Sbor, tartibga keltirish, saqlash va boshlang'ich tahlil qilish	Boshqaruv ierarxiasini barcha darajalarida
<b>Telekommunikatsiyalar</b>	Olis axborot manbalaridan foydalanish	Taqsimlangan malumotlar bazasini tuzish uchun tashkilot ichkarisida
<b>Kompyuter grafikasi</b>	Axborotni boshqaruv qarorini qabul qiluvchi shaxs o'zlashtirishi uchun qulay bo'lgan ixcham ko'rinishda taqdim etish	Grafiklar, diagrammalarni tayyorlashda; real va virtual (masalan, loyihalashtirilayotgan) obektlarni aks ettirishda
<b>Hududiy axborot tizimlari</b>	Malumotlar bazasini hudud haqidagi vizual (verbal) axborotlar bilan bog'lash	Keng yoyilgan tizimlarni boshqarishda

### **Bozorga kirish**

Bozorga kirish uchun quyidagi savollarga javob berish kerak bo'ladi. Bu savollar tanlangan bozor strategiyasining to'g'ri tanlanganligini ko'rsatadi



